



## Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi

# 2019 yilning yanvar-mart oylarida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi-

**502,9 mlrd.so'm**

Yirik qurilish  
tashkilotlari ulushi -

**17,5 %**

Kichik korxonalar va  
mikrofirmalar ulushi -

**48,6 %**

Norasmiy sektor  
ulushi- **33,9 %**

Joriy yilning yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatida jami 502,9 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,5 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 87,9 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 17,5 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 174,4 %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 48,6 %i yoki 244,7 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,3 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 33,9 % yoki 170,3 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 137,5 %ni tashkil etdi.

### Yirik qurilish tashkilotlari

hajmi - **87,9 mlrd.so'm**

o'sish sur'ati - **174,4 %**

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar

hajmi - **244,7 mlrd.so'm**


o'sish sur'ati - **108,3 %**

### Norasmiy sektor

hajmi - **170,3 mlrd.so'm**

o'sish sur'ati - **137,5 %**

## Yanvar-mart oylarida faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish



ishlari hajmida 68,3 %ni tashkil etdi va o`ngan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan 6,9 % punktga kamaydi.




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 24,8 %ni tashkil etib, o`ngan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 8,7 % punktga ko`paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 6,9 % to`g`ri keldi hamda o`ngan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 1,8 % punktga kamaydi.



## Yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 0,2 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi.

Bunda kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 50,3 % (10,0 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 49,5 %ni tashkil etdi.

## 2019 yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 58,7 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,1 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 41,3 % (4,1 % punktga kamayish) tashkil etdi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,9 % punktga kamaydi va 41,0 %ni tashkil etdi.

Qolgan 59,0 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,9 % punktga ko'paydi.

## 2019 yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari

	<i>Jami</i>		<i>shu jumladan:</i>	
			<i>hududiy qurilish pudrat tashkilotlari</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %da</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %da</i>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>502,9</b>	<b>125,5</b>	<b>87,9</b>	<b>174,4</b>
Termiz sh.	117,0	127,4	4,0	201,9
tumanlar:				
Oltinsoy	9,9	109,2	-	-
Angor	17,2	105,9	-	-
Boysun	29,4	113,3	-	-
Denov	38,6	112,0	-	-
Jarqurg'on	36,8	101,9	0,5	-
Qiziriq	16,2	117,2	2,0	384,3
Qumqurg'on	29,7	104,8	14,2	142,6
Muzrabot	21,8	158,5	-	-
Sariosiyo	96,1	153,5	60,5	202,8
Termiz	32,6	156,8	0,9	264,7
Uzun	11,2	105,7	-	-
Sherobod	34,5	128,7	5,8	74,5
Sho'rchi	11,9	113,6	-	-

## Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan )



■ Yirik qurilish tashkilotlari   ■ Kichik korxonalar va mikrofirmalar   ■ Norasmiy sektor


Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 244,7 mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 48,6%) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,3 %ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 87,9 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 17,5 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 174,4 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 33,9 % yoki 170,3 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 137,5 %ni tashkil etdi.



## 2019 yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining mulkchilik shakllari bo`yicha tarkibi (jamiga nisbatan )




Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 8,7 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 1,7 %ni tashkil qildi ya`ni 2018 yil yanvar-martiga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 494,2 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 98,3 %ni (2018 yil yanvar-martiga nisbatan 0,1 % punktga ko`payish) tashkil qildi.



## Hududlarda qurilish ishlarining o`shish suratlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan %da)




Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o`shish sur`ati Sariosiyo tumanida kuzatilgan bo`lib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan o`shish sur`ati 153,5 %ni tashkil etdi. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi yirik qurilish tashkilotlari hissasiga to`g`ri kelib, tumandagi jami qurilish ishlarining 63,0 %ini tashkil qiladi.





## Yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari, (jamiga nisbatan )



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilagan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Termiz shahriga 23,3 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sariosiyo tumaniga 19,1 %, Denov tumaniga 7,7 % va Jarqurg'on tumaniga 7,3 % ga to'g'ri keldi.



Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi

Aloqa telefoni:

(76) 223-07-15

(71)230-85-81